



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Eshkuvatov Josur Buribayevich

*A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti doktoranti
E-mail: jasureshkuvatov290@gmail.com
(Tel:(97) 928 11 07)*

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMI MODERNIZATSIYASIDA ZAMONAVIY PEDAGOGNING KREATIVLIK SALOHIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim tizimini modernizatsiyasida zamonaviy pedagogga xos bo'lgan xususiyatlar atroflicha bayon qilingan. Zamonaviy pedagogda XXI asr ko'nikmalaridan ijodkorlik ya'ni kreativ fikrlash qobiliyati muhim sanaladi. Har bir pedagog o'z sohasi bo'yicha yuqori salohiyatga ega bo'lsagina ta'lim beradigan o'quvchilarida ham ushbu ko'nikmalarni rivojlantira oladi. Kreativlik kompetensiyasi shaxsning turli kasbiy (pedagogik) faoliyat davrlaridagi ijodiy muvaffaqiyatlarni aks ettiradi va yangi professional mahsulotlarni yaratish va shaxsning ijodiy qobiliyatlarini amalga oshirish orqali faoliyatning yuqori natijalarga erishish qobiliyati sifatida tushuniladi.

Kalit so'zlar: pedagogik ta'lim, kompetensiya, 4K ko'nikmalari, kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya, kollobratsiya, evristik, stereotip, tafakkur, abstraktlik.

Abstract: This article describes in detail the characteristics of a modern pedagogue in the modernization of the continuous education system. Among the skills of the 21st century, creativity, that is, the ability to think creatively, is considered important for a modern pedagogue. Each pedagogue can develop these skills in his students only if he has high potential in his field. Creativity competence reflects the creative success of a person in various professional (pedagogical) periods of activity and is understood as the ability to achieve high results of activity by creating new professional products and realizing the creative abilities of a person.

Key words: pedagogical education, competence, 4K skills, creativity, critical thinking, communication, collaboration, heuristic, stereotype, thinking, abstraction.

Аннотация: В данной статье подробно описаны характеристики современного педагога в условиях модернизации системы непрерывного образования. Среди навыков XXI века важным для современного педагога считается креативность, то есть способность творчески мыслить. Каждый педагог может развить эти навыки у своих учеников только в том случае, если он обладает высоким потенциалом в своей области. Творческая компетентность отражает творческие достижения человека в различные профессиональные (педагогические) периоды деятельности, создает новые профессиональные продукты и реализует творческие способности человека.

Ключевые слова: педагогическое образование, компетентность, навыки 4К, креативность, критическое мышление, общение, сотрудничество, эвристика, стереотип, мышление, абстракция.

Kirish. Pedagogik ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning imkoniyatlaridan keng foydalanishga ustuvorlik berish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Uzluksiz ta'lim tizimini jumladan, umumiy o'rta ta'lim tizimini modernizatsiya qilish ta'lim va tarbiyaning an'anaviy usullarini ijodkorlikka yo'naltirilgan usullarga almashtirishni taqozo etmoqda.

Jamiyatni rivojlantirishning zamon shartlarida nostandart fikrlovchi, faol ijtimoiy mavqega ega, o'z kasbiy faoliyatida mobil o'zgarishlarga, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishga qodir mutaxassislariga bo'lgan talab oshib bormoqda. Innovatsiyalar muhiti sharoitida umumiy o'rta ta'lim pedagoglarining faoliyati ayrim vaziyatlarda zaif tuzilmaga aylanib bormoqda, faoliyatning ilgari joriy qilingan usullari hozirgi zamon natijalariga erishishga imkon bermayapti. Mazkur muammoning hal etilishi umumiy o'rta ta'lim pedagoglarida kreativlik salohiyatini tashkil etishni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bizning nuqtai nazarimizda pedagog salohiyati tarkibidagi kreativlik kompetentsiyasi shaxsning turli kasbiy (pedagogik) faoliyat davrlaridagi ijodiy muvaffaqiyatlarni aks ettiradi va yangi professional mahsulotlarni yaratish va shaxsning ijodiy qobiliyatlarini amalga oshirish orqali faoliyatning yuqori natijalarga erishish qobiliyati sifatida tushuniladi.

Asosiy qism: Pedagogikada kreativlik (ijodiylik) "qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish layoqati, badiiy shakl yaratish, fikrlash, g'oya va yechimga olib keluvchi aqliy jarayon, shaxsning yangi g'oyalarni yaratish va qabul qilishga tayyorligini tavsiflovchi ijodiy qobiliyati" [1; 198-b.], kreativ (ijodiy) tafakkur esa "erkin fikrlash va ijodkorlik tamoyili ustuvor bo'lgan tafakkur shakli; bir-biriga bog'liq

bo‘lgan ichki aqliy omillar asosida yangicha tafakkurga ega bo‘lishning mantiqiy izchilligi mahsuli; voqea-hodisalarni qiyoslash, taqqoslash, tahlil etish asosida fikrni rivojlantirish, uning yangi-yangi qirralarini ochish, shu tariqa bilim va tasavvur dunyosini boyitishni anglatadi” [1; 52-b.] tarzida ifodalanadi hamda shaxsning aqliy rivojlanish darajasi bilan bog‘liqlikda o‘rganiladi.

Zamonaviy pedagogning faoliyati, kreativlik mahsulotning xususiyatlari noodatiylik, yangilik, qabul qilingan qarorlarning foydaliligi, shuningdek, faoliyatning maqbul tashkillashtirilganligida ifodalanadigan pedagogik faoliyatning yaxlit samaradorligi hisoblanadi.

Butunjahon iqtisodiy forumida taqdim etilgan ta‘lim modelining bosh g‘oyasini “4K: kritik tafakkur, kreativlik, kommunikatsiya, kolloboratsiya” ko‘nikmalari tashkil etishi ham ta‘lim sohasida yuqori natijalar ko‘rsatayotgan davlatlarda bu kompetensiyalarning prerogativligiga [2] mutanosibligini ko‘rsatadi.

Global taraqqiyot shiddati barcha jabhalar kabi pedagog xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularni uzluksiz kasbiy rivojlantirishning zamonaviy ta‘lim nazariyasi, amaliyoti va yangi an‘analariga tayangan holda o‘qitishning kreativ modellarini yaratish hamda jarayonga tezkor joriy qilishni taqozo qiladi. Mazkur holat fan, ta‘lim, texnika, texnologiya, amaliyotning yuqori tezlikda modernizatsiyalashib borishi fonida o‘qituvchilarning, umuman pedagog xodimlarning o‘z kasbiy faoliyatiga tanqidiy, tahliliy, kreativ, anglangan munosabatni, innovatsiyalarni chuqur o‘zlashtirish, amaliyotga dadil kiritish, milliy o‘zlikka xos bo‘lgan yondashuvlarni o‘rganish, sintezlash, mualliflik metodikalarini ishlab chiqish va joriy qilishni belgilasa, ikkinchi tarafdin, ta‘lim oluvchilarning ta‘limiy ehtiyojlarini ta‘minlash, kreativ salohiyatini ro‘yobga chiqarish, qobiliyatlarini rivojlantirish, yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, kasb-hunarga yo‘naltirish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarning ahamiyatiga e‘tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi.

Tahlillar: Ijodga bag‘ishlangan izlanishlar soni minglab, ammo salohiyat sifatida kreativlik tushunchasi deyarli ko‘rib chiqilmaydi, shu bilan birga, ushbu masala bilan bir qatordagi izlanishlar ham mavjud. Ularga ijodiy fikrlash va kreativlikka bag‘ishlangan ishlarni (D.B. Bogoyavlenskaya, M.Vollax, D.Gilford, V.N.Drujinin, M.M.Kashapov, A.M.Matyushkin, S.Mednik, V.I.Panov, Ya.A.Ponomarev, Ye.Torrens, V.D.Shadrikov va b.) kiritish mumkin. Ilmiy tadqiqotlarda belgilanishicha, pedagog tafakkuri yuqori iyerarxik darajaga erishgan holda, “ochiqlik”, “chegaralardan chiqish” kabi ijodiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Professional pedagogik tafakkurning supersituatsion darajasi quyidagi xususiyatlarga ega: abstraktlik, tez o‘zlashtira olish, rivojlangan tasavvur, yuqori ijodiy imkoniyat, stereotiplarni yengishga intilish hisoblanadi. Bundan tashqari, professional pedagogik tafakkurning supersituatsion darajasi quyidagi terminal qiymatlarning ustunligi bilan

bog‘liq: kreativlik, faol ijtimoiy munosabatlar, o‘zini rivojlantirish. Tafakkurning situativ darajasidan supersituativ darajasiga o‘tishda shaxsiy sifatlarning ijobiy o‘zgarishi amaliy faoliyat, ijod ko‘rsatkichlariga kiritilgan fikrlashdagi ma’lum realizatsiyadir (Kotochigova Ye.V., 1998, 2001).

Zamonaviy psixologik-pedagogik adabiyotlarda pedagogning ijodiy fikrlashini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan turli yondashuvlar tasvirlangan. Biz shunga aminmizki, mazkur yondashuvlar pedagogning kreativlik salohiyatini shakllantirishga mos keladi. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari bilan ishlashga kelsak, ikkita asosiy narsani ajratish mumkin: muammoli-uslubiy va muammoli-amaliy, operativ.

Pedagogning o‘quv faoliyatni tashkillashtirishga qaratilgan muammoli-uslubiy yondashuv quyidagilarni nazarda tutadi:

- a) faoliyatida yuzaga keladigan haqiqiy muammo va masalalarni tahlil qilish;
- b) ushbu muammo va masalalarni o‘quv faoliyati predmet tarkibning tuzilmaviy bo‘linmalari sifatida modellashtirish (yetkazish, o‘xshatish);
- v) ushbu muammo va masalalarni nazariya va tarbiyachining amaliy tajribasi asosida muammolarni hal qilishning metodologiyasini qayta ishlash maqsadida o‘rganish.

Metodologik jihatdan anglab yetish predmeti ba’zi amaliy vazifalarni ishlash tuzilishi, mazkur vaziyat tufayli, yetakchi g‘oyaning paydo bo‘lishidan uni amalga oshirishning ma’lum usullarni ishlab chiqishga qaratilgan fikrlar harakatining jarayoni (Kulyutkin Yu.N., Suxobskaya G.S., 1971). Bunday ta’lim o‘qituvchilarda turli pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishga, harakatlarning ijodiy usullarini mustaqil ishlab chiqishga va vaziyatning vositalarini va unda ishlash imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Mazkur darajaning asosiy mazmuni o‘zini umumiy bilimlar, mahoratlar, ijodiy yechim ko‘nikmalari va pedagogning o‘zi va uning hamkasblari tajribasidan foydlangan holda pedagogik muammoli vaziyatlar sharoitida o‘zini tutishni shakllantirishga kirituvchi tarbiyachi ta’limi hisoblanadi. Ijodiy pedagogik fikrlashni takomillashtirishning operativ darajasi o‘rganilayotgan ishning muhim qismi hisoblanadi. Mazkur darajada muammoli vaziyatlarning vositalarini ko‘rishni ta’minlovchi qobiliyatlarni rivojlantirish ro‘y beradi. Bunday qobiliyatlarni rivojlantirish pedagogik vaziyatlar va taklif qilingan yechimlarni tahlil qilishning usullarini o‘qitish jarayonida amalga oshiriladi. Mazkur darajaning o‘ziga xos afzalligi sifatida – qo‘llaniladigan ta’lim vositalarining reglamentliligi, miqdoriyligi, shuningdek, subyekt tafakkurida yangi g‘oyalarning paydo bo‘lishi uchun kerak bo‘ladigan kichik davr xizmat qiladi. Ushbu amalga oshirilgan davr natijasi ijodiy pedagogik fikrlash darajasining oshishi hisoblanadi. Ushbu darajada qo‘llaniladigan asosiy yo‘nalishlarga: muammoli-me’yoriy, funksional-operativ, muammoli-didaktik,

muammoli-evristik turlar kiritiladi. Ijodiy fikrlashni takomillashtirish jarayonida asosiy e'tibor, murakkab pedagogik reallikda o'qituvchi, pedagogning muammoni aniqlash qobiliyati ijod ko'rsatkichi sifatida ahamiyatga ega bo'lgan muammoli-evristik yo'nalishga qaratiladi. Kasbiy faoliyatni evristik tashkil qilishda o'qituvchilarni o'qitish natijasi ulardagi tashabbus, mustaqillik, shaxsiy muammolarni va ularning yechimini ijodiy ravishda aniqlashni oshirishdan iborat. M.M.Kashapovning ta'kidlashicha, ijodiy fikrlashning shakllanishi qator bosqichlardan o'tadi:

- ijodiy fikrlashning kasbiy ravishda ahamiyatga ega bo'lgan sifatlarini izlash, saralash va to'plash;

- o'z ahamiyatiga ko'ra turli xil komponent va aloqalar ajaratiladigan yaxlit tuzilma asosida kasbiy tafakkur tarkiblarini barqarorlashtirish;

- kasbiy tafakkur tuzilmasining qisqarishi, uning rivojlanish holatidan ma'lum vaziyatda foydalanish holatiga o'tishi (Kashapov M.M., 2006).

Har bir bosqichda ijodiy jarayonning quyidagi bo'g'imlari amalga oshiriladi: yangi g'oyaga bo'lgan talab, muammolarni ilgari surish, ehtimoliy aniq yechimlardan uzoqlashish, kerakli usullar kombinatsiyasini izlash, yechimni tahmin qilish bo'yicha takroriy harakatlar, yechim shaffofligi (Kashapov M.M., 2006).

Shunday qilib, umumiy o'rta ta'lim pedagogining kreativlik salohiyatini shakllantirish dasturi ijodiy kasbiy tafakkurni rivojlantirishning usullaridan foydalanishga asoslanishi va pedagogik muammoli vaziyatlarni hal etishga tayanishi mumkin. Shuningdek, ijodga xizmat qiluvchi shart sharoitlarni yaratish haqida qayg'urish va kreativlikka to'siq bo'luvchi muhitni bartaraf etish zarur.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Pedagogika: ensiklopediya. II jild // Tuzuvchilar: jamoa. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 376 b.

2. School and teaching practices for twenty-first century challenges: lessons from the Asia-Pacific region, regional synthesis report, UNESCO, 2016 [Elektron resurs] – URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000244022>.

3. Djurayev R.X, Mirzayev Ch.E., Raximov B. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish jarayonini kompleks loyihalash // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent. – 2008. - №3. – B. 37-42.

4. Nishanova Z.T. O'quvchi va talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishning psixologik jihatlari // Doktorant, aspirant va tadqiqotchilarning 2000-yil o'tkazilgan ilmiy nazariy anjumani tezislari to'plami. – Toshkent : TDPU, 2000. – B. 42-45.

5. Боровинская Д.Н., Суровцев В.А. Креативность и мышление: категориальная характеристика // Вестник Томского государственного

университета. Философия. Социология. Политология. – Томск, 2019. – №47. – С. 15-24.

6. Голубова В.М. Исследование природы креативности мышления и креативности личности // Фундаментальные исследования. Психологические науки. – Москва, 2015. – №2. – С. 1067-1071.

7. Зиновкина М.М. НФТМ-ТРИЗ: Креативное образование XXI века (Теория и практика): Монография. – М.: МГИУ, 2007. – 306 с.

8. Князева Е.Н. Природа креативности в зеркале креативности природы // Эпистемология креативности. – М.: «Канон+» РООИ «Реабилитация», 2013. – С. 10–47.